

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston texnik jihatdan
tartibga solish agentligi direktori
Xavflar qo‘mitasi Raisi**

A.R. Jumanazarov

2026-yil 29-yanvar

**O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi
yig‘ilishining 8-son bayoni**

2026-yil 29-yanvar

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi:

A.R. Jumanazarov – O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Xavflar qo‘mitasi Raisi

Qatnashganlar:

Agentlik Xavflar qo‘mitasi a‘zolari -
O.Tohirov, T.Mashanpin, D.Ziyamatov, D.Umarova,
G.Aliev, D.Otamirzaeva, A.Olimov.

Agentlik Xavflar qo‘mitasi mustaqil a‘zosi:

S. Jo‘raev

Agentlik Xavflar qo‘mitasi ishchi organi:

Moliyaviy ichki audit xizmati mas‘ul xodimi (vakant)

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyuldagi “2025 – 2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini takomillashtirish konsepsiya”siga asosan Agentlikning 2025-yil 10-dekabrda 52-sonli yig‘ilish bayoniga ilova “Yo‘l xaritasi”ning 16- va 17-bandlari ijrosini muhokama qilish.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat moliyasi sohasida xavflarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2025-yil 29-apreldagi 279-son qaroriga ko‘ra xavflarni aniqlash va baholash hamda ularni kamaytirish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan 2025-yil yakunlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni muhokama qilish.

(Jumanazarov, Tohirov, Mashanpin, Olimov, Jumanazarov)

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) Xavflar qo‘mitasi raisi **A. Jumanazarov** majlisni ochar ekan, Agentlik va tizim tashkilotlari faoliyatida xavflarni aniqlash, reestrini tuzish, dastlabki baholash va xavflarni kamaytirilishini oldini olish vazifalari belgilanganligini ta’kidladi.

Xavflar qo'mitasi raisi tomonidan mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan Agentlikning 2025-yil 18-iyuldagi 80-sonli buyrug'iga asosan **Xavflar qo'mitasi** a'zolari va ularning ish faoliyati bo'yicha Nizomi **tasdiqlanib**, unda:

Agentlik tarkibiy bo'linmalari faoliyatidagi ish jarayonlarini tahlil qilish, xavflarni aniqlash va baholash bo'yicha Ishchi guruh tarkibi tasdiqlanganligi;

Agentlikda "Xavflarni boshqarish qo'mitasi" tashkil etilganligi va uning Nizomi tasdiqlanganligi;

Doimiy va har chorak yakuni xavflarni aniqlash, tahlil qilish hamda oldini olish, shuningdek oqibatlarini oldini olish yuzasidan Qo'mitaga axborot kiritib borish belgilanganligi **qayd etildi**.

Shundan so'ng, buyruq ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi axboroti eshitildi va **muhokama qilindi**.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo'limi tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan quyidagilar **ma'lum qilindi**:

Agentlikning buyrug'i va 2026-yil 19-yanvardagi 04-06-179-sonli xati asosida xavflarni aniqlash, reestri tuzish va kamaytirish borasida Agentlik va tizim tashkilotlari rahbarlariga ko'rsatma **taqdim qilingan**;

taqdim qilingan ma'lumotlar Ishchi guruh tarkibiga kiritilgan tarkibiy bo'linmalar mutaxassislari bilan birgalikda yuklatilgan vazifa va funksiyalarning bajarilishi, ehtimoliy xavflar va ularni bartaraf qilish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar **o'rganilgan**;

tarkibiy bo'linmalar va ularning faoliyati bilan bog'liq asosiy vazifa va funksiyalar bo'yicha Agentlik va tizim tashkilotlarida jami **263 ta xavflar** aniqlangan **bo'lib**, ularni reestri **tuzildi**;

aniqlangan xavflar reestridan **190 tasi** Agentlik, **17 tasi** "O'zbekiston milliy metrlogiya instituti" davlat muassasasi, **16 tasi** "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorat markazi" davlat muassasasi, **15 tasi** "O'zbekiston standartlar instituti" davlat muassasasi, **14 tasi** "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" davlat muassasasi va **11 tasi** Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi hisobiga **to'g'ri kelgan** (1-ilova);

xavflar reestri, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi 279-sonli qaroriga ko'ra 1-ilova "**Moliyaviy va boshqa xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tartibi to'g'risida**"gi Nizom doirasida dastlabki baholashdan o'tkazilgan va xavflarni (yuqori va o'rta) kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi **ishlab chiqilgan** (2-ilova);

baholangan xavflar reestrini **60 tasi (yoki 23 %) yuqori xavflar**, **149 tasi (yoki 57 %) o'rta xavflar** va **54 tasi (yoki 20 %) past xavflardan iborat** (3-ilova).

Agentlik Xavflar qo'mitasi a'zolari kun tartibidagi masalalar yuzasidan o'z fikrlarini **bildirdilar**.

Agentlikning 2025-yil 18-iyuldagi 80-sonli buyrug'i bo'yicha xavflarni aniqlash va baholash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar ijrosi ma'qul deb **topildi**.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan eshitilgan mutasaddi rahbarlarning hisobotlarini, shuningdek mavjud muammolar, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi takliflarini muhokama qilgan holda, **Qo‘mita qaror qiladi:**

1. Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo‘limining aniqlangan xavflar reestri (1-ilova), baholangan xavflar va ularni kamaytirish chora-tadbirlari rejasi (2-ilova) va xavflar tahlili (3-ilova) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Agentlik va tizim tashkilotlarining tarkibiy bo‘linmalari hamda ushbu bo‘linmalarga **mas’ul o‘rinbosarlari** har chorakda Xavflar qo‘mitasiga:

- faoliyatda yuzaga kelgan yangi xavflarni kiritish;

- yuqori va o‘rta xavflarni kamaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan 2-ilova chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash;

- bajarilgan ishlar yuzasidan yozma axborot berish bilan birgalikda o‘zining taklif va tavsiyalarini kiritish.

3. Agentlikning tizim tashkilotlari direktori (L.Saidoripov, J.Kattaxodjaev, A.Abduraxmanov, A.Abdukayumov, B.Sharipov) va uning o‘rinbosarlari baholangan xavflar va ularni kamaytirish chora-tadbirlari rejasini bajarilishiga shaxsan javobgar hisoblanadi.

4. Moliya-iqtisod bo‘limi (A.Olimov), Buxgalteriya (D.Otamirzaeva) audit shtat birligi lavozimiga xodim **ishga olingunga qadar** quyidagi vazifalarni bajarilishini **nazoratga olsin** hamda rahbariyatga ma’lumot kiritib borsin:

Agentlik va tizim tashkilotlarining tarkibiy bo‘linmalari tomonidan har chorakda Qo‘mitaning ishchi organiga aniqlangan xavflar doirasida o‘z axborotini kiritib borsin;


ishchi organi Xavflar qo‘mitasiga tahliliy monitoring natijalari bo‘yicha axborot berish ishlari ta’minlasin.

5. Direktor o‘rinbosarlari (O.Tohirov, T.Mashanpin), Raqamlashtirish va axborot xavfsizligini ta’minlash boshqarmasi (F.Usmanov) 2026-yil martga qadar xavflarni elektron reestrini yuritish bo‘yicha axborot tizimini ishlab chiqish va yo‘lga qo‘yish vazifasi **belgilansin.**


6. Mazkur bayonni ijrosini nazorat qilish Moliya-iqtisod bo‘limi (A.Olimov) zimmsiga yuklatilsin.

Kelishilgan:


O. Tohirov

Handwritten signature of O. Tohirov in blue ink, consisting of stylized letters and a horizontal line.

T. Mashanpin

Handwritten signature of T. Mashanpin in blue ink, featuring a large, flowing initial 'M' and a horizontal line.

Q. Raximov

Handwritten signature of Q. Raximov in blue ink, showing a stylized 'R' and a horizontal line.